



ABDURAUUF FITRAT ASARLARIDA FOJIAVIYLIK VA KOMEDIYAVIYLIKNING BADIY TALQINI

Ziyodullayev Shamsiddin Yusuf o'g'li

Osiyo texnologiyalar universiteti 2 - kurs magistr

Email: ziyodullayevshamsiddin2706@gmail.com

Tel: +998886743235

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20306856>

ARTICLE INFO

Received: 1st May 2026

Accepted: 5th May 2026

Published: 18th May 2026

KEYWORDS

Jadid adabiyoti, Fitrat dramaturgiyasi, fojiaviylik, komediya, tragizm, satira, "Abulfayzxon", "Qiyomat", badiiy talqin, milliy uyg'onish.

ABSTRACT

Mazkur maqolada jadid adabiyotining yirik namoyandasi Abdurauf Fitrat asarlarida fojiaviylik va komediya badiiy talqini tahlil qilinadi. Adibning "Abulfayzxon", "Qiyomat", "Shaytonning tangriga isyoni", "Hind ixtilolchilari", "Chin sevish" kabi dramatik va nasriy asarlarida ijtimoiy fojea, milliy uyg'onish, mustamlakachilikka qarshi kurash hamda inson ruhiyati bilan bog'liq masalalar badiiy vositalar orqali yoritilganligi ochib beriladi. Maqolada Fitrat dramaturgiyasida tragizm va komizmning o'zaro uyg'unligi, satira va kinoyaning ma'rifiy-estetik vazifasi ilmiy manbalar asosida tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida tarixiy-qiyosiy, struktural va badiiy tahlil metodlaridan foydalanildi. Natijada Fitrat o'zbek dramaturgiyasida fojiaviy va komediya tafakkurni bosqichga olib chiqqan ijodkor ekanligi asoslab berildi.

Kirish

XX asr boshlarida Turkiston ijtimoiy-siyosiy hayotida yuz bergan tub o'zgarishlar milliy adabiyot taraqqiyotiga ham kuchli ta'sir ko'rsatdi. Ana shu davrda shakllangan jadid adabiyoti xalqni ma'rifatga, milliy uyg'onishga va istiqlol g'oyalari chorlovchi badiiy hodisa sifatida maydonga chiqdi. Ushbu harakatning eng yirik vakillaridan biri Abdurauf Fitrat bo'lib, u o'zbek dramaturgiyasi va nasrida yangi badiiy tafakkur tamoyillarini shakllantirdi [1].

Fitrat ijodi ko'p qirrali bo'lib, unda tarix, falsafa, milliy ozodlik, ma'rifat va insoniy qadriyatlar masalasi yetakchi o'rin egallaydi. Adibning dramatik asarlarida fojiaviylik va komediya alohida badiiy-estetik ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, "Abulfayzxon" tragediyasi orqali hukmdor va jamiyat o'rtasidagi murakkab munosabatlar, zulm va inqirozning fojeali oqibatlari ochib berilgan bo'lsa, "Qiyomat" va "Shaytonning tangriga isyoni" asarlarida satirik va kinoyaviy tasvir orqali ijtimoiy illatlar tanqid qilingan [2].

Fitrat dramaturgiyasi Sharq va G'arb adabiy an'analarini uyg'unlashtirgan holda shakllangan. U tragediya janrida tarixiy voqealarni milliy taqdir bilan bog'lab tasvirlasa, komedik unsurlar yordamida jamiyatdagi jaholat, mutaassiblik va mustamlakachilik siyosatini fosh etadi [3]. Shu jihatdan adib ijodida fojiaviylik va komediya faqat estetik hodisa emas, balki ijtimoiy-ma'rifiy vosita sifatida ham namoyon bo'ladi.

Metodologiya

Tadqiqot jarayonida tarixiy-qiyosiy, tizimli va badiiy-estetik tahlil metodlaridan foydalanildi. Avvalo, Fitratning dramatik va nasriy asarlari jadid adabiyoti kontekstida o'rganildi. Shuningdek, fojiaiylik va komediyaivlik nazariyasiga oid adabiyotlar asosida asarlarning poetik xususiyatlari tahlil qilindi.

Maqolada Fitrat asarlarining matniy tahlili bilan birga, ularning yozilish davridagi tarixiy-siyosiy sharoit ham hisobga olindi. Jadid adabiyotining asosiy maqsadi xalqni uyg'otish va ma'rifatga undash bo'lgani sababli, adibning satirik hamda tragik obrazlari ham shu maqsadga xizmat qilganligi ilmiy manbalar asosida yoritildi [4].

Tadqiqotda o'zbek adabiyotshunoslari Begali Qosimov, Izzat Sulton, Naim Karimov, Ozod Sharafiddinov va boshqa olimlarning ilmiy qarashlariga tayanildi. Shuningdek, Fitrat asarlarining zamonaviy nashrlari ham asosiy manba sifatida qo'llanildi.

Natijalar

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, Fitrat ijodida fojiaiylik, avvalo, millat va shaxs fojiasi bilan bog'liq holda talqin qilinadi. "Abulfayzxon" tragediyasida hukmdor obrazi orqali davlat tanazzuli, siyosiy zulm va insoniy qadriyatlarining yemirilishi ko'rsatiladi. Asarda Abulfayzxonning ruhiy iztiroblari va shubhalari tragediyaning asosiy dramatik kuchini tashkil etadi [5].

Fitrat tarixiy obrazlarni ideallashtirmaydi. Aksincha, ularni ichki ziddiyatlari bilan ko'rsatadi. Shu sababli "Abulfayzxon" tragediyasi faqat tarixiy drama emas, balki siyosiy-psixologik tragediya sifatida ham ahamiyatlidir. Asarda davlat boshqaruvidagi adolatsizlik va xoinlik fojening bosh sababi sifatida tasvirlangan [6].

Komediyaivlik esa Fitrat ijodida ko'proq satira va kinoya shaklida namoyon bo'ladi. "Qiyomat" hikoyasida diniy mutaassiblik, jaholat va insonlarning yolg'on e'tiqodlari kulgili, biroq achchiq kinoya bilan ochib beriladi. Adib komedik vositalar orqali jamiyatdagi ma'naviy tanazzulni tanqid qiladi [7].

"Shaytonning tangriga isyoni" asarida ham ramziy-satirik tasvir kuchli. Shayton obrazi orqali jamiyatdagi adolatsizlik va ikkiyuzlamachilik fosh etiladi. Asardagi komediyaiviy elementlar o'quvchini kuldirishdan ko'ra, o'ylashga undaydi. Bu esa Fitrat satirasining ma'rifiy xarakterga ega ekanligini ko'rsatadi [8].

Fitratning "Hind ixtilolchilari" va "Chin sevis" dramalarida ham fojiaiylik yetakchi o'rin tutadi. Ushbu asarlarda mustamlakachilikka qarshi kurash, ozodlik va vatanparvarlik g'oyalari tragik syujet orqali yoritilgan. Tadqiqotchilar ushbu asarlarni Turkiston voqeligiga ramziy ishora sifatida baholaydilar [9]

Tahlil va muhokama

Abdurauf Fitrat ijodi jadid adabiyotining eng murakkab va ko'p qatlamli badiiy hodisalaridan biri hisoblanadi. Uning dramaturgiyasi, nasriy asarlari va publitsistik merosida fojiaiylik hamda komediyaivlik o'zaro uyg'un holda namoyon bo'ladi. Adibning estetik qarashlari faqatgina badiiy tasvir vositasi sifatida emas, balki millatni uyg'otish, ijtimoiy tafakkurni o'zgartirish va ma'rifiy g'oyalarni targ'ib qilish maqsadiga xizmat qilgan [1]. Shu jihatdan Fitrat asarlaridagi tragizm va komizmni o'rganish o'zbek jadid adabiyotining poetik tabiatini anglashda muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Fitrat asarlarida fojiaiylik, avvalo, tarixiy va milliy taqdir bilan bog'liq holda talqin qilinadi. Jadid adabiyotining asosiy maqsadi Turkiston xalqini mustamlakachilik va jaholatdan qutqarish bo'lganligi sababli, Fitrat tragediyalarida ham milliy inqiroz va ma'naviy tanazzul asosiy dramatik konflikt sifatida ko'rinadi. Ayniqsa, "Abulfayzxon" tragediyasida davlatning ichki yemirilishi, hukmdorning ruhiy zaifligi va siyosiy beqarorlik fojiaiy tusda tasvirlangan [2]. Asarda Abulfayzxon obrazi oddiy tarixiy shaxs sifatida emas, balki tanazzulga yuz tutgan davlat tizimining ramziy timsoli sifatida namoyon bo'ladi.

Fitrat tragediyasining o'ziga xos jihati shundaki, u voqealarni faqat tashqi konflikt orqali emas, balki qahramonlarning ichki ruhiy iztiroblari orqali ham ochib beradi. "Abulfayzxon"da hukmdorning qo'rquv, shubha va iztiroblari asarning psixologik dramatzimini kuchaytiradi. Bu jihat Fitrat dramaturgiyasining Yevropa tragediyasi, xususan, Shekspir dramatik an'analari

bilan yaqinligini ko'rsatadi [3]. Tadqiqotchilar tomonidan Fitratning tarixiy tragediyalarida Hamlet va Makbet kabi psixologik fojiaga asoslangan dramatik usullarning ta'siri kuzatilishi qayd etilgan.

Adibning fojiaiviylik haqidagi qarashlari faqat tarixiy voqealar bilan cheklanmaydi. U inson va jamiyat o'rtasidagi ziddiyatni ham tragediyaning asosiy manbai sifatida ko'rsatadi. "Hind ixtilolchilari" dramasida mustamlakachilikka qarshi kurashayotgan insonlarning ruhiy kechinmalari, ozodlik yo'lidagi qurbonlik va milliy g'urur fojiaiviy ruhda aks ettirilgan [4]. Fitrat ushbu asar orqali Turkiston xalqi hayotiga ham ramziy ishora qiladi. Chunki Hindistonning mustamlakachilik ostidagi hayoti Turkistonning siyosiy ahvoli bilan ma'lum darajada mushtarak edi.

Fitrat tragediyalarining yana bir muhim jihati — ularda ma'rifatparvarlik g'oyasi fojiaiviy tusda namoyon bo'lishidir. Jadid adiblari nazarida xalqning jaholatda qolishi milliy fojea hisoblangan. Shu sababli Fitrat asarlarida ilm-ma'rifatdan uzoqlashgan jamiyat tanazzulga yuz tutgan muhit sifatida tasvirlanadi. "Chin sevish" dramasida ham insoniy muhabbat bilan bir qatorda, ozodlik va ma'rifat g'oyasi yetakchi o'ringa chiqadi. Asarda qahramonlarning shaxsiy fojeasi aslida milliy va ijtimoiy fojeaning bir ko'rinishi sifatida talqin qilinadi [5].

Fitrat dramaturgiyasida fojiaiviylik ko'pincha tarixiy obrazlar vositasida ochib beriladi. Adib tarixiy voqealarni idealizatsiya qilmaydi, aksincha, ularni real ziddiyatlar va murakkab ruhiy holatlar bilan ko'rsatadi. Shu sababli Fitratning tarixiy dramalari romantik pafosdan ko'ra, realizm va psixologizmga yaqin turadi. Bu esa o'zbek dramaturgiyasida yangi badiiy tafakkur shakllanishiga xizmat qilgan [6].

Fojiaiviylik bilan bir qatorda Fitrat asarlarida komediyaiviylik ham muhim estetik funksiyani bajaradi. Biroq adib komediyaiviylikni faqat kulgi yaratish vositasi sifatida emas, balki ijtimoiy tanqid quroli sifatida qo'llaydi. Ayniqsa, uning satirik asarlarida kulgi orqali jamiyatdagi mutaassiblik, johillik va ikkiyuzlamachilik fosh qilinadi. "Qiyomat" asari buning yorqin namunasi. Ushbu asarda diniy fanatizm va yolg'on taqvodorlik satirik yo'sinda tasvirlangan [7].

"Qiyomat"dagi komediyaiviy unsurlar yuzaki kulgidan ancha chuqurroq ma'noga ega. Fitrat bu asarda insonlarning qiyomat haqidagi tasavvurlarini kinoyaviy shaklda tasvirlash orqali ularning ma'naviy saviyasini ochib beradi. Asardagi satira jadidchilik mafkurasining asosiy tamoyillaridan biri bo'lgan tanqidiy fikrlash g'oyasini ifodalaydi. Muallif diniy aqidaparastlikni tanqid qilish orqali ilm-fan va tafakkur ustuvorligini targ'ib etadi [8].

Fitratning komediyaiviy uslubi Sharq mumtoz adabiyotidagi hajv va latifa an'analari bilan chambarchas bog'liq. Ayniqsa, Nasriddin Afandi obrazlariga xos kulgi elementlari uning ayrim satirik hikoyalarida seziladi [9]. Biroq Fitrat bu an'analarni zamonaviy ijtimoiy mazmun bilan boyitadi. Uning satirasida an'anaviy hajviy obrazlar orqali mustamlakachilik siyosati, byurokratiya va ijtimoiy adolatsizlik tanqid qilinadi.

"Shaytonning tangriga isyoni" asari Fitratning ramziy-satirik tafakkurini yaqqol namoyon etadi. Ushbu asarda Shayton obrazi orqali jamiyatdagi adolatsizlik, zulm va ma'naviy tanazzul tanqid qilinadi. Tadqiqotchilar ushbu asarni sovet mafkurasini va senzura sharoitida yozilgan yashirin ramziy asar sifatida baholaydilar [10]. Fitrat allegorik tasvir vositasida o'zining ijtimoiy-siyosiy qarashlarini bevosita emas, balki ramziy yo'l bilan ifodalashga muvaffaq bo'lgan.

Fitrat dramaturgiyasida komediyaiviylik ko'pincha fojiaiviylikni yanada kuchaytiruvchi vosita sifatida xizmat qiladi. Ayrim dramatik sahnalarda kulgili dialoglar orqali chuqur ijtimoiy fojea ochiladi. Bu usul dramatik kontrast hosil qilib, asarning ta'sirchanligini oshiradi. Masalan, "Qiyomat"dagi ayrim kulgili epizodlar ortida insonlarning ma'naviy inqirozi yashiringan. Shu jihatdan Fitrat komediyaiviylikni mustaqil estetik hodisa emas, balki tragediya bilan uzviy bog'liq badiiy kategoriya sifatida talqin qiladi.

Adibning dramaturgik mahorati uning dialog qurilishida ham yaqqol seziladi. Fitrat munozara usulidan keng foydalangan. Munozara Sharq adabiyotidagi qadimiy janr bo'lib, Fitrat uni

zamonaviy dramaturgik shaklga aylantirdi [11]. Asarlardagi qarama-qarshi fikrlar to'qnashuvi orqali fojiviy va komediyaviy ruh bir vaqtda namoyon bo'ladi. Bu esa dramatik konfliktning tabiiy va ta'sirchan chiqishiga xizmat qiladi.

Fitratning satirik qahramonlari ko'pincha ma'naviy jihatdan o'jiz insonlar sifatida tasvirlanadi. Ular jamiyatdagi jaholat va mutaassiblikning timsoli hisoblanadi. Adib kulgi orqali bunday qahramonlarning ichki bo'shligini ochib beradi. Shu bilan birga, Fitrat satirasida achchiq kinoya ustunlik qiladi. Bu kulgi o'quvchini shunchaki quvontirish uchun emas, balki uni mushohada qilishga undash uchun xizmat qiladi.

Fitratning fojiviy va komediyaviy tasvir usullari keyingi o'zbek dramaturgiyasi rivojiga sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Hamza Hakimzoda Niyoziy, Cho'lpon va boshqa dramaturglar ijodida Fitrat boshlab bergan satirik hamda tragik usullar davom ettirildi [12]. Ayniqsa, tarixiy drama va ma'rifiy satira janrlarining shakllanishida Fitratning xizmatlari katta bo'ldi.

Fitrat ijodining yana bir muhim jihati — uning dramatik asarlarida milliy o'zlik masalasining fojiviy va komediyaviy shaklda yoritilishidir. Jadid adiblari uchun millatning o'zligini yo'qotishi eng katta fojea hisoblangan. Shu sababli adib asarlarida ma'naviy qullik, til va madaniyatdan uzoqlashish keskin tanqid qilinadi. Fitratning satirik obrazlari ko'pincha o'z milliy qadriyatlarini unutgan insonlar sifatida tasvirlanadi.

Adabiyotshunos Edward Allworth Fitrat dramaturgiyasini "murakkab va ko'p qatlamli ramziy tizim" sifatida baholaydi [13]. Tadqiqotchining fikricha, Fitrat senzura sharoitida yashirin ma'nolar va allegorik tasvirlardan keng foydalangan. Bu esa uning fojiviy va komediyaviy tasvirlarini yanada chuqurlashtirgan.

Umuman olganda, Fitrat asarlarida fojiviylik va komediyaviylik bir-birini inkor etuvchi emas, balki to'ldiruvchi badiiy kategoriyalar sifatida namoyon bo'ladi. Tragediya orqali jamiyatning og'riqli muammolari ko'rsatilsa, komediya va satira orqali ushbu muammolarning ildizi ochib beriladi. Natijada Fitrat dramaturgiyasi nafaqat estetik, balki ijtimoiy-ma'rifiy ahamiyatga ega bo'lgan yirik adabiy hodisaga aylanadi.

Xulosa

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, Abdurauf Fitrat asarlarida fojiviylik va komediyaviylik chuqur ijtimoiy-falsafiy mazmunga ega. Adib tragediya orqali milliy fojea, siyosiy zulm va inson ruhiyati inqirozini tasvirlagan bo'lsa, komedik vositalar yordamida jamiyatdagi jaholat, mutaassiblik va ikkiyuzlamachilikni fosh etgan.

Fitratning dramatik asarlari o'zbek adabiyotida yangi badiiy tafakkur bosqichini boshlab berdi. Uning tragediyalari milliy ozodlik va inson erki masalalarini yoritgan bo'lsa, satirik asarlari ma'rifiy-estetik vazifani bajardi. Shu jihatdan Fitrat ijodi bugungi adabiyotshunoslik uchun ham muhim ilmiy manba hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Qosimov B. *Milliy uyg'onish*. – Toshkent: Ma'naviyat, 2002. – 145–162-betlar.
2. Fitrat A. *Tanlangan asarlar*. 1-jild. – Toshkent: Ma'naviyat, 2000. – 56–98-betlar.
3. Karimov N. *XX asr o'zbek adabiyoti tarixi*. – Toshkent: O'qituvchi, 1999. – 201–230-betlar.
4. Sulton I. *Adabiyot nazariyasi*. – Toshkent: O'qituvchi, 1980. – 244–267-betlar.
5. Fitrat A. *Abulfayzxon*. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot, 1991. – 12–67-betlar.
6. Sharafiddinov O. *Jadid adabiyoti va Fitrat*. – Toshkent: Sharq, 2004. – 84–103-betlar.
7. Fitrat A. *Qiyomat*. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2006. – 17–39-betlar.
8. Quronov D. *Adabiyotshunoslik nazariyasi*. – Toshkent: Akademnashr, 2018. – 311–328-betlar.
9. Qosimov B. *Abdurauf Fitrat*. – Toshkent: Fan, 1996. – 98–127-betlar.
10. Abdirashidov Z. "Fitratning ma'rifiy-axloqiy qarashlari haqida". – *Oltin bitiglar*, 2020, №2. – 117–134-betlar.

11. Kara H. *Reclaiming National Literary Heritage: The Rehabilitation of Abdurauf Fitrat*. – Berlin: Humboldt University Press, 2018. – 45–73-betlar.
12. Allworth E. *The Modern Uzbeks: From the Fourteenth Century to the Present*. – Stanford: Hoover Institution Press, 1990. – 187–205-betlar.



INNOVATIVE
ACADEMY